

SUZUVCHI NERV FAOLIYATINI O'ZGARTIRISH UCHUN QO'LLANILADIGAN DORI MODDALAR VA ULARNI INSON SALOMATLIGI UCHUN TA'SIRI

Hamroqulova Madinabonu Sanjarovna

Osiyo Xalqaro Unversteti Tibbiyot fakulteti

Ilmiy raxbar: Djalilova Zarnigor Obidovna

Osiyo Xalqaro Unversteti Klinik fanlar kafedrası dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nerv sistemasidagi o'zgarishlar va nerv sistemasidagi inson organizmining boshqaruv markazi ekanligi haqida yozma bayon qilingan. Tashqi va ichki muhit o'rtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlanishi va zamonaviy tibbiyotda nerv faoliyatiga ta'sir etuvchi turli dori moddalar ishlab chiqilganligi haqida yozilgan. Shu bilan birga, noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanilishi inson salomatligi uchun salbiy oqibatlariga ham olib kelishi haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Nerv sistemasi, orqa miya, dori vositalari, tabletka, infuzion eritma, organizm, nerv tolasi.*

KIRISH

Nerv-murakkab anatomik tuzilma bo'lib markaziy nerv sistemasi bilan barcha organlarni bog'lab turadi. Nerv tolalari tutamidan iborat. Bu tolalar biriktiruvchi to'qimalar pardasidan iborat. Markazga intiluvchi tolalar orqali miyaga impulslar yo'naladi markazdan qochuvchi tolalar esa skelet muskullariga impulslar o'tkazadi. Ma'lum sohalarda suzuvchi nerv tolalari yuzaga yani teri osti va shilliq pardalarga chiqadi. Nerv sistemasi-insonning butun organ va sistemalari faoliyatini boshqarib organizmni bir butun holda tashqi muhit bilan bog'lab turuvchi sistema. Nerv sistemasi-organizmning eng murakkab va hayotiy muhim tizimlaridan biri bo'lib, barcha a'zolar va funksiyalarni muvofiqlashtiradi hamda tashqi va ichki muhit ta'sirlariga javob qaytaradi. Nerv hujayralari o'rtasida axborot almashinuvi elektr impulslar va kimyoviy vositachilar orqali amalga oshadi. Bu jarayonlar buzilganda insonda turli kasalliklar, xususan, ruhiy-emotsional buzilishlar, og'riq sindromlari, uyqu buzilishlari, epilepsiya va boshqa nevrologik holatlar yuzaga keladi. Zamonaviy tibbiyotda nerv sistemasining suzuvchi faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi dori moddalar keng qo'llaniladi. Ular yordamida nerv impulslarini kuchaytirish yoki susaytirish og'riqni yo'qotish, xotirani yaxshilash, ruhiy barqarorlikni tiklash va organizmning umumiy quvvatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, noto'g'ri qo'llanilganda bunday preparatlar inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib,

qaramlik, asabiy buzilishlar, yurak faoliyati va nafas markazining izdan chiqishiga sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, suzuvchi nerv faoliyatiga ta’sir qiluvchi dori vositalarining farmakologik xususiyatlarini, terapevtik imkoniyatlarini va inson organizmiga bo‘lgan ta’sirini chuqur o‘rganish zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Sezuvchi nerv faoliyatini o‘zgartirish uchun qo‘llaniladigan dori moddalarga asosan mahalliy anesteziyalovchi yani og‘riq qoldiruvchi moddalar misol bo‘ladi. Masalan: Anestezin (Anaesthesinum) – bu dori asosan badanga eshakem toshganda qichima paydo bo‘lganda paydo bo‘ladi va jarohatlangan joydagi ogriqni yo‘qotish uchun qo‘llaniladi. Me’dada spazm boshlanib og‘riq turganida va dengiz kasalliklarida ham buyuriladi. Benkain (Bencainum) – stomatologiya amaliyotida infiltrasion anesteziya uchun eritma ko‘rinishida qo‘llaniladi. Dikain (Dicainum) – ko‘z kasalliklari amaliyotida yuzaki anesteziya olish uchun va otorinolaringologiya amaliyotida eritmalar holda ishlatiladi. Dikain eritmasini ishlatishdan avval Adrenalin gidrokslorid eritmasidan qo‘shilib ishlatiladi. Kokain gidrokslorid (Cocaini hydrochloridum) – ko‘z kasalliklari amaliyotida konyuktiv va ko‘z shox pardasini og‘riqsizlantirish uchun eritma holda ishlatiladi. Shu bilan birgalikda stomatologiyada tish pulpasini og‘riqsizlantirish uchun ham ishlatiladi. Novokain (Novocainum) – orqa miya anesteziyasi uchun qo‘llaniladi. Homiladorlikning kechki toksikozlarida, qon tomirlar spazmlari, va o‘n ikki barmoq ichakning yara kasalligi, qichima, neyrodermit, keratit, ekzema, pridorsiklit kasalliklarida eritma holda foydalaniladi. Piromekain (Pyromecainum) – jarrohlik va stomatologik amaliyotlarda og‘riqsizlantirish, neyroxirurgiyada, mushak ichiga yoki teri ostiga yuborilganda og‘riqni bartaraf etish uchun qo‘llaniladi. Sovkain (Sovcainum) – Kichik jarrohlik amaliyotlarda lokal og‘riqsizlantirish, tish sug‘urish, kichik stomatologik muolajalar, neyralgiya va radikulitda og‘riqni kamaytirish maqsadida in’yeksiya uchun foydalaniladi. Trimekain (Trimecainum) – Tish jarrohligida, uzoq muddatli og‘riqsizlantirish talab etiladigan muolajalar, kardiologiyada ham qo‘llaniladi.

XULOSA

Suzuvchi nerv faoliyatini o‘zgartiruvchi dorilar tibbiyotda keng qo‘llanilib, og‘riqni kamaytirish, ruhiy buzilishlarni davolash, hushyorlikni oshirish, shok holatidan chiqish kabi ko‘plab imkoniyatlarni beradi. Biroq ularni mutaxassis nazoratisiz ishlatish qaramlik, asab va yurak faoliyati buzilishi, hatto hayot uchun xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bunday dorilarni faqat shifokor ko‘rsatmasiga binoan, to‘g‘ri dozada qo‘llash zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guyton, A. C., & Hall, J. E. (2006). *Textbook of Medical Physiology*. 11th ed. Elsevier Saunders.
2. Bear, M. F., Connors, B. W., & Paradiso, M. A. (2015). *Neuroscience: Exploring the Brain*. 4th ed. Lippincott Williams & Wilkins.
3. Purves, D., Augustine, G. J., Fitzpatrick, D., Hall, W. C., LaMantia, A.- S., & White, L. E. (2012). *Neuroscience*. 5th ed. Sinauer Associates.
4. Xayitov, M., & O'zbekiston milliy entsiklopediyasi tahririyati. (2002). *Inson anatomiyasi*. Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
5. Nazarov, R. (2009). *Fiziologiya asoslari*. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
6. Tursunov, A. A. (2015). *Odam anatomiyasi va fiziologiyasi*. Toshkent: Tibbiyot fanlari akademiyasi.